
Amirobod MFY: "Obod qishloq" dasturi – farovonlik asosi

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

☞ So'nggi yillarda tuman markazlarida obodonlashtirish va markaziy ko'chalarning me'moriy qiyofasini yangilash bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi. Biroq, sir emaski, mamlakatimizning salmoqli qismini tashkil etadigan qishloq va mahallalarda aholini qiynab kelayotgan muammolar, o'z yechimini kutib turgan masalalar yillar davomida to'planib qolgan edi. Davlatimiz rahbarining "Obod qishloq" dasturi to'g'risida "gi Farmoni va "Obod qishloq" dasturini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori oldimizda ko'ndalang turgan ana shunday masalalarga yechim bo'ldi.

☞ Rishton tumanida olis va tabiiy iqlim sharoiti og'ir hududlardagi qishloqlarda aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi va darajasini sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgartirish, qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy mezonlar asosida qayta qurish, qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholi, ayniqsa, yoshlar uchun muqim ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan "Obod qishloq" Dasturi qishloq aholisi uchun ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin namunasi bo'ldi.

- Dasturga asosan, 2022 yilda tumanimizdagi "Amirobod" mahalla fuqarolar yig'inlarida bunyodkorlik ishlarini olib borish rejalashtirilgan, - deydi tuman hokimi o'rinbosari Nozimxo'ja Oripov. - Xususan, ijtimoiy soha ob'ektlarida bir qator amaliy ishlarni olib borishni maqsad qilganmiz.

-Doimo tevarak-atrofimizni obodonlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratmog'imiz darkor, deydi tuman IIB boshlig'i X. Tashpo'latov. - Xonadonimiz oldi ko'chalarga archalar, gullar ekib, boshqalarga ibrat, o'rnak bo'lishga intilishimiz lozim.

☞ Bugun tumani hokimi o'rinbosari N. Oripov, tuman IIB boshlig'i X. Tashpo'latov boshchiligida mutasaddi tashkilotlar rahbarlari tumandagi "Amirobod" mahallasida bo'lib, obodonlashtirish ishlari bilan tanishishdi va mahallalarda xonadonma-xonadon yurib, fuqarolar bilan uchrashib, har birimiz obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol qatnashishimiz, bu borada ishlarni jadallik bilan olib borishimiz lozirligini va har bir fuqaro o'z xonadoniga sabzavot mahsulotlarini ekishni, ko'chat qurish va ko'cha madaniyatiga e'tibor qaratishi zarurligi borasida gapirib o'tishdi. Bugun sektor rahbarlarining mahallama-mahalla yurib, obodonlashtirish ishlarida yanada faol bo'lishga chorlashlari bu bizning chiroyli yashashimiz uchun qilinayotgan e'tibor deb bilishimiz kerak.

☞ "Amirobod" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 33- umumta'lim maktabini ta'mirlash, QVP binosini ta'mirlash, MFY hududiga 10 km ichimlik suvi tarmoqlarini tortish, 1 km yo'lni asfaltlashtirish va 2 km yo'lni shag'allashtirish, 102 ta tayanch simyog'ochlarini qayta ta'mirlash va 2 ta TPni yangilash va modernitsaziya qilish va 50 dona ko'cha chiroqlari o'tkazish, 3 km aloqa tarmoqlarini tortish, 0.5 kmga piyodalar yo'lakchasi o'tqazish va hududni infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan ishlar rejalashtirilgan.

☞ Bugungi kunda "Obod qishloq" qishloq dasturi doirasida Rishton tumani Amirobod MFY hududida qurilishi rejalashtirilgan 1 ta bekat va ushbu hududdagi QVP binosi qurilishi yakuniga yetkazilgan bo'lsa, qolgan ob'ektlarda ish jadallik bilan davom etmoqda.

☞ Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy etilgan mazkur dastur hududlarda aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirish, xalqni rozi qilish, yurtimizni yanada taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

2022-08-17 16:05:41